

## TAXILALIYA – NUTQ TEMPI BUZILISHINING BELGILARI UNING KELIB CHIQISHI VA BARTARAF ETISH USULLARI

*Islomova Ozoda Sayfiddinovna*

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchi*

*Esirgapova Sadoqat*

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi*

*Defektalogiya (logopediya) yo'nalishi talabasi*

**Anotatsiya:** Nutq -bu odamni ma'lum bir shaxs sifatida anglash uchun vosita hisoblanadi. Inson nutqi qanchalik ravon, aniq, sof bo'lsa biz uni shunchalik yaxshi tushunib anglaymiz. Ushbu maqolada taxilaliya, uning insonda nomoyon bo'ladigan belgilari, hayot tarziga ta'siri qanday ekanligi va bu nuqsonning kelib chiqish sabablari, shu bilan birga eng asosiysi taxilalik insonlar bilan olib boriladigan ishlar bosqichma- bosqich yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, taxilaliya , bradilaliya, ritm, nutq tempi.

Nutq- insonlarning bir-biri bilan fikr almashish, munosabatini bildirish, axborot almashish uchun muhim vosita hisoblandi. Nutq orqali biz o'z his tuyg'ularimizni ifoda etish bilan birgalikda, o'zgalarga ta'sir etish qobiliyatiga ega bo'lamiz. O'z navbatida nutqdagi kichik o'zgarishham biz ifodalamoqchi bo'lgan narsani buzib yuborishi mumkin. Taxilaliya-nutq tempining tezlashuvi. Bradilaliya nutqning sekinlashuvi hisoblanadi. Taxilaliya haqida bir qancha olimlar o'zlarining fikrlarini bildirib o'tishgan. Birinchi marta taxilaliyani Yu.A.Florenskaya 1934-yilda nutq buzilishining mustaqil shakli sifatida ajratdi. Taxilaliya quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi: keskin fonetik va simptomatik buzilishlarsiz, nutqning nonormal tezlashning tempi bir sekunda 10-20 tovush o'rniga 20-30 tovush talaffuz qilinadi. Nutq haddan tashqari tezligi bilan ajralib turadi. Shoshilinchda nutqiy diqqat buzilishi, tutilishlar, takrorlashlar, ichida qolib ketishlar, so'z, bo'g'inlar o'rnini almashtirishlar, gaplarni buzish, jumlalarni noaniq talaffuz qilish va shu kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin. Nutqiy bo'limgan simptomatika umumiylar matorika vegetativ nerv sistemasini, psixik jarayonlar, hissiy-irodaviy soha buzilishlarida, xulq-atvor kamchiliklarda nomoyon bo'ladi. Taxilaliyali odamda umumiy harakatlardan tempi buziladi: harakatlari tez va shiddatli bo'ladi. Motor notinchlik hatto uyqu vaqtida ham anqlanadi, bolalar to'shakda uyoqdan buyoqqa o'grilaveradilar. Diqqati turg'un bo'lmaydi, bir obyektdan boshqasiga o'tishi yuqori darajada, ko'ruv, eshituv va motor xotirasi yetarli miqdorda bo'lmaydi. Fikrlar oqimi uni artikulatsiyalashdan tezroq kechadi. Taxilaliyali bolalar jizzaki, tez qo'zg'aluvchan bo'ladi. Taxilaliyaning kelib chiqish sabablari va mexnizmlari sifatida somatik, psixogen omillarni va odatlarni keltirishimiz mumkin. O'tkazilgan nevrologik tadqiqotlar miyanig fiziologik va anatomik o'zgarishga uchraganini ko'rsatadi. Bu yo prenatal buzilishlar ekanligini yo ular konstitutsional xususiyat bo'lib nasldan naslga o'tganligini anglatadi.

Taxilaliyani bartaraf etishda quyidagilarni tarbiyash ko'zda tutadi:

- sekin, osuda, ravon, qat'iy ritmik nafas va ovoz hosil bo'lishini;
- shoshmaddin ritmik o'qishni;

2023: International Conference on Research Identity,  
Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

- d) xotirjam ritmik tartibga solinganutqni;
- e) nutqiy va umumiy xatti-harakatlar jarayonida jamoagsog‘lom qarashni;
- f) nutqga qaratilgan umumiy va eshituv diqqatini.

Taxilaliyali bola yoki katta shaxsning nuqsonini bartaraf etishda ularning qaytalanishini hisobga olgan holda ishlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqich- sukul saqlash hidoblandi. Bunda mashg‘ulotlardan tashqari holarda iloji boricha sukul saqlash kerak bo‘ladi. Faqatgina eng muhim bo‘lgan jumlalar bilan chegaralandi. Ikkinci bosqich – sekinlashgan nutqni shakllantirish mobaynida baland talaffuzni yo‘lga qo‘yish hisoblandi. Avval logoped tomonidan o‘qish namuna beradi, so‘ng bolalar navbatma-navbat har kimning o‘qishi tahlil qilib chiqiladi. Har bir mashg‘ulot nutqiy mashqdan boshlanadi 30 yoki 50gacha sanash, so‘ng shug‘ullanuvchilarining birining rahbarligida yakka va guruhli mustaqil nutqiy ish olib boriladi. Undan tashqari ulardagi barcha xatti-harakatlarni sekinlashtirish tavsiya etiladi.

Uchinchi bosqich-bayon qilingan fikrlarni tahrir qilish, ko‘zlangan mazmun bo‘yicha jumlalarning to‘g‘riliqi ustida ish olib boriladi. Bunda aynan bir jumlaning turlicha holatdagi talaffuzini mashq qildirish. To‘rtinchi bosqich-guruhli hikoya ustida ishlash. O‘z do‘smini diqqat bilan eshita turib, har bir kishi hikoyaga kutilmaganda qo‘shiladi. Bunda o‘ziga o‘zi sekin o‘qish qo‘shiladi, bu esa og‘zaki nutqga intizomlashgan va sekinlashgan ta’sir ko‘rsatadi. Bu bosqichda nutq ustida yakka ishlashga ko‘p vaqt ajratiladi, logopedik kabinetdan tashqari, individual va jamoa bilan funksional mashqlar o‘tkaziladi. Funksional mashqlar ko‘chada, do‘konda, pochtada, transportda va boshqa joylardagi dialoglar ko‘rinishida bo‘ladi. Beshinchi yakunlovchi bosqich- jamoat oldiga chiqishga tayyorgarlik. Bunda o‘quvchilarining individual xususiyatlarini hisobga olgan holatda matn tanlanadi. Insonning xatti-harakatlar odati, nutq tempi mustaqil yakka va frontal mashg‘ulotlarda ishlanadi. O‘quvchilarining chiqishlari magnitafon tasmasiga yoziladi, eshitib ko‘riladi, mazmuni va tashqi bezatilishi bo‘yicha tahlil qilinadi.

Kurs davomiyligi 2,5-3 oy. Agar bu vaqt yetarli bo‘lmasa, tanaffusdan so‘ng mashg‘ulotlarni 4-6 oy mobaynida davom ettirish tavsiya qilinadi. Logopedik mashg‘ulotlardan so‘ng, to‘g‘ri nutq malakalarini keyinchalik mustaqil mustahkamlashga yo‘nalish beriladi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. M.Y Ayupova Logopediya – M , 2007, 302,304,316,317 b
2. L Mo‘minova. M Ayupova Logopediya –T 1993
3. Mo‘minova Tutilib gapiruvchilar uchun qo‘llanma – T 1980
4. Jo‘rayeva S. Bolalarda nutq tempining buzilishi va bartaraf etishning korreksion usullari.